

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA O'QITISH METODIKASI

**Mahmudov Jahongir Saminjon o'g'li**

Namangan davlat universiteti Musiqa ta'limi va madaniyat fakulteti

Vokal san'ati 3 – bosqich talabasi

E-mail: [Jahongirmahmudov1997@gmail.com](mailto:Jahongirmahmudov1997@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish metodikasi, bolalarni hozirgi zamonaviy innovatsiyalar va metodlar yordamida musiqa darsiga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** musiqa, metodika, innovatsiya, texnologiya, zamonaviy metodlar, ilg'or texnologiyalar, musiqa, ohang, asbob, kuy.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье речь пойдет о методике преподавания музыки в начальных классах, о дальнейшем повышении интереса детей к уроку музыки с помощью современных инноваций и методов.

**Ключевые слова:** музыка, методика, инновации, технология, современные методы, передовые технологии, музыка, мелодия, инструмент, мелодия.

### ABSTRACT

This article will talk about the methodology of teaching music in elementary grades, further increasing the interest of children in a music lesson with the help of current modern innovations and techniques.

**Keywords:** music, methodology, innovation, technology, modern methods, advanced technology, music, melody, instrument, melody.

Umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda estetik madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisining oldiga bir necha vazifalar qo'yilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining professional va ahloqiy qiyofasiga bog'liq bo'lib qanday san'atkor maktabda musiqa darsini olib borolmaydi.

Buning uchun musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli, keng dunyohar ashli, ma'naviyati yetuk, biror bir cholg'u asbobini

mohirlik bilan ijro eta oladigan shaxs bo‘lmog‘i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, e’tika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy soxalaridan, musiqa o‘qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo‘lmog‘i kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaga doir ko‘pgina masalalarni o‘rganish shunday xulosaga olib keldiki, ular amalda asosan musiqiy ta’lim doirasida o‘rganilib kelinmoqda. Vaholanki, texnologiyaning yunoncha “san’at”, “mahorat” ma’nolarida ifodalanishini inobatga olsak, unda musiqiy g‘oya, insondagi his-tuyg‘u va hosil bo‘ladigan ichki kechinmalar aynan uyg‘un ritmik tovushlar orqali ifodalanadigan san’at turi ma’nosida hosil bo‘layotgan mazmun bilan o‘zaro uyg‘unlashib, butun bir uzviylikni vujudga keltiradi. Shu nuqtai nazardan har aganda musiqa ta’limi texnologiyasi o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchining his-tuyg‘u va kechinmalarini real musiqiy vositalar bilan o‘zgartirib borishini taqazo etadi. Bu hol, o‘z navbatida, musiqiy ma’lumotlar mazmunini yangilashni; o‘quv materiallari (musiqa tinglash, jamoa bo‘lib kuylash, musiqiy savodxonlik, ritmik harakat va cholg‘u-asoblariga jo‘r bo‘lish)ni moddiylashtirish va pedagogik ishlov berishni, o‘rganiladigan mavzu (musiqa savodiga oid materiallar)ni o‘quvchilarning real bilish imkoniyatlarini muvofiqlashtirishni; tinglanadigan musiqa asarlarini esa bolalar idrok etish qobiliyatiga va qo‘shiqlarni ijro etishi mumkin bo‘lgan ovoz diapazoniga moslashtirishni talab etadi.

Ma’lumki, musiqa san’atimiz yoshu-keksaning ezgulikka va go‘zallikka yetaklaydi: yosh avlodni ona yurtga, tabiatga bo‘lgan muxabbatini tarbiyalaydi, otanaga bo‘lgan va kichiklarga izzatu kattalarga xurmatni, mehnatga bo‘lgan munosabatni o‘stiradi, atrof muhitga bo‘lgan qiziqishini o‘stiradi. Insonning ruhiy olami, nozik xis-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari uning ijtimoiy faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Barkamol ruhiy ko‘tarinkilik, ajib his tuyg‘ular va ichki kechinmalari mutanosiblashtirishda jozibali musiqaning sehrli ta’siri beqiyos, ulkandir. Musiqani tushunish, tinglash, ijro etish va undan xayotda manfaatdor bo‘lish insoniy madaniylik bilan uyg‘unlashib ketgan.

”Boshlangiich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr va simfonik orkestrlar faoliyati, musiqiy sahna asarlari, xalq va professional musiqasi, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o‘zbek xalq cholg‘u asboblarini bilishni, mashhur o‘zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari, ustozona, mumtoz musiqa, sharq xalqlari musiqasi, qardosh va jahon xalqlari musiqasi, ularning taniqli namoyondalari, maqom va shashmaqom, uning mashhur ijrochilari faoliyati, o‘zbek musiqasida mahalliy uslublar va uning mashhur ijrochilari, o‘zbek milliy musiqasida zamonaviylik

va zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o‘zlashtirishni nazarda tutadi.”<sup>[1]</sup>

Musiqa - yunoncha, mousiche – muzolar san’ati – inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag‘ma) lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san’at turi. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruxiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy – badiiy holatlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf – qo‘rquv va boshqalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bundan tashhari musiqa shaxsning irodaviy sifatleri (qat’iylik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va boshqalarni, uning tabiati, mijozini ham yorqin aks ettiradi).

«Musiqa madaniyati» darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning musiqiy bilimlarga, jumladan musiqa savodiga qiziqishlarini kuchaytirdi. O‘quvchilar endilikda musiqiy boshqotirmalarni bemalol yechadigan, notalarni yaxshi biladigan, tovush va uning xususiyatlarini anglaydigan, musiqa ifoda vositalari haqida aniq tushunchalarga ega bo‘ldilar.

Tajribalar darslarning samaradorligi ularning to‘g‘ri uyushtirilishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Musiqa «til»i hamma va barchaga tushunarli va yaqin. Shuning uchun u insonlarning ruhiyatini ko‘tarish, quvonch va rohat baxsh etish bilan birga, o‘tib kelayotgan yosh avlodni shaxs sifatida shakllantirishda benazir yordamchidir. Musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish o‘quvchilarda nafaqat musiqiy savodxonlikni, balki musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur va shu kabi sifatleri shakllantirishga xizmat etishi amalda o‘z isbotini topdi. O‘quvchilar maktabga kelgan ilk kunlaridanoq, san’atga, ayniqsa, musiqaga intilish va qiziqishlari yuqori bo‘ladi. Shuning uchun musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu o‘qituvchining mutaxassis, o‘z sohasining ustasi sifatida bilimdonligi va ijodiy barkamolligiga bog‘liqdir.

Musiqa madaniyati darslari – o‘quvchilarda musiqiy did va musiqiy dunyoqarashni shakllantiruvchi eng muhim vositadir. U o‘quvchilarning aqliy, jismoniy, g‘oyaviy shakllanishiga ta’sir etadi. Musiqa o‘quvchilarda borliq haqida o‘ziga xos «shaxsiy nuqtai nazar»ni, voqea va hodisalarga faol va ijodiy munosabatni shakllantiradi. Musiqa alohida shaxsga va keng jamoaga ham birdek ta’sir qiladi (emosional, ijodiy, estetik, g‘oyaviy, pedagogik, fiziologik va hokazo). Aynan shuning uchun ham «Musiqa madaniyati» o‘quv fanining xususiyatlaridan kelib chiqib, nazariy va amaliy yo‘nalishdagi materiallarning maqbul nisbatini saqlagan holda, musiqaning barcha mavjud imkoniyatlarini ochib bera olishi kerak.

O'qituvchilarga:

1. Darslarni tashkil etishda, jumladan, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida tizimlilikka rioya etish. Shunda o'quvchilarning shaxsiy sifatlari bir maromda shakllanadi.

2. Chorak mavzularidan kelib chiqqan holda musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlar bilan uzviy olib borish.

1. Musiqa madaniyati darslarida, xususan, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

2. Ilg'or pedagogik tajribalardan ibrat olish va darslarni o'yin tarzida qiziharli qilib uyushtirish.

3. O'z pedagogik mahoratini, malakasini muntazam ravishda takomillashtirib borish.

4. Ota-onalar bilan doimo muloqotda bo'lish orqali o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish yo'llarini izlash (maxsus musiqa maktablari, musiqiy to'garaklarga jalb etish).[2]

Buning uchun bolalar melodiya tizimning tugalligi va notugalligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari kerak. O'qituvchi shunday musiqa misolini tanlaydiki, bunda bir tarkib tonikada o'rnashmagan bo'lishi, boshqa bir tarkib esa – o'rnashgan bo'lishi lozim. U bolalarga har ikkala musiqaviv tarkibini kuylashni taklif etishi bilan birga, bulardan qaysi biri tugalroq, qaysi biri notugal eshutilishini so'raydi. So'ngra o'qituvchi bolalarga notugal misolni takrorlashni va shu misol ham tugal eshitmog'i uchun oxirgi tovushni topish haqida topshiriq beradi. Bunday mashqlarni butun o'quv yili davomida o'tkazish va topshiriqni asta-sekin murakkablashtira borish tavsiya etiladi. Avval boshda o'quvchilar keskin tortiluvchi boshlama tondan keyingi tonikani, undan keyin ladning boshqa bosqichlaridan sakramali bilib olishadi.

III-sinfda bu ish davom yettiriladi, natijada o'quvchilar musiqa asarini tugallaydigan tovushning t o n i k a deb atalishini bilib olishadi. O'qituvchi ikki misolni taqqoslar ekan. I- bosqichda - gammaning asosiy bosqichida tugaydigan misol tugal eshutilishini tushuntirib beradi. Bolalar endi Do major gammasini bilganliklari va kuylay olganliklari sababli, o'qituvchi ularning diqqatini, bu gamma tonika bilan - do notasida boshlanib, shu tonikada tugayotganligi uchun Do major deb atalishiga jalb etadi.

O'qituvchi major va minor haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash uchun bolalarga juda xilma-xil mashqlarni berishi mumkin:

a) o'qituvchining ijro etadigan kuyini eshitib olib, uning qanday ladda yozilganini aniqlaydilar;

b) doskaga ikki kuyni(majorda va minorda yaratilgan kuylarni) yozib qo‘yiladi, o‘qituvchi bularning birini ijro etadi, o‘quvchilar esa qaysi kuy va qanday ladda yozilganini aniqlaydilar;

v) majorda yoki minorda yozilgan hamda major bilan minorni taqqoslab ko‘riladigan melodiylarni kuylash;

O‘qituvchi o‘quvchilarning tabiiy minorni o‘zlashtirishlariga qarab ularni garmonik va melodik minor bilan asta-sekin tanishtira boradi. U har qanday yangi materialni ko‘p sonli, asosan qo‘shiqqa doir mashqlar, shuningdek, sinfda va uyda bajariladigan bir qancha yozma topshiriqlar asosida mustahkamlab boradi. Bir oz keyinroq (V sinfda) o‘quvchilarga major va minor tonliklarining yondoshligi va nomdoshligi to‘g‘risida tushuncha beriladi. Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida bu bolalarni quyidagi tartibda joylashtirish kerak: birinchi qatorga musiqa rahbarining ovozigga tayanib kuylaydiganlar, ikkinchi qatorga musiqiy uquvi bo‘sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo‘lmagan bolalar, uchinchi qatorga qobiliyatli ovozi jarangdor bo‘lgan bolalar o‘tiradilar. Bunda ikkinchi qatordagi bolalar musiqa ohanglarini atroflaridan eshitib, ularning ovozigga ergashib, chiroyli, ifodali, to‘g‘ri kuylashga harakat qiladilar.

Shu uslub bilan bolalarni musiqiy uquvini o‘stirish mumkin. Ba’zi musiqa uquvi bo‘sh bo‘lgan bolalar bilan mashg‘ulotlardan keyin alohida, yakka tartibda shugullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib qo‘shiqlar alohida o‘rgatiladi. Shu tariqa bolalarda musiqaga qiziqish, qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash ishtiyoqi, musiqiy qobiliyati, musiqiy uquvi, qo‘shiq kuylash malakalari hosil bo‘ladi. Shu bilan birga kayfiyatlari ko‘tariladi.

Musiqa bilan ta’sir ko‘rsatish metodi. Bu metod musiqa tinglash faoliyatida qo‘llaniladi. Bolalar musiqani turlicha tushinadilar. Masalan, G‘.Qodirovning “Qushlar” asarini tinglab, uni nomini bilmay turib, turlicha fikr yuritadilar. Ayrimlarin tabiat manzariga, boshqalar qushning kuylashini, qolganlari esa boshqacha karakter xis etib aytadilar. Ba’zi birlarida esa yaxshi kayfiyat tug‘iladi. Shuning uchun musiqa rahbari bolalarga asarning mazmunini tushintirib beradi. U bolalar diqqatini musiqaning ifoda vositalariga qaratadi. Bolalar esa kuylovchi qush obrazini yaratadilar. Bu musiqa bilan ta’sir etish metodidir. Bolalarning musiqaga qiziqish, musiqa tinglashda taqqoslashga o‘rganish kuylashda, raqsda, turli cholg‘ular ijrosida o‘rgatiladi. Musiqa rahbari ushbu faoliyatlarni ketma-ket olib borganda maqsadga erishadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1.Ortiqov.T. Musiqa o‘qitish metodikasi. Toshkent: Muharrir, 2010. –B.28.
- 2.Badalov.K.Musiqa o ‘qitish metodikasi va maktab repertuari. Toshkent :2014.B.54.